


## II. SANOAT

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2021 yilning yanvar-iyun oylarida 3 495,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2020 yilning tegishli davriga nisbatan 114,7 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 92,5 foizni tashkil etdi (2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 114,7 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 4,7 foizni (ishlab chiqarish indeksi 146,3 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 1,2 foizni (ishlab chiqarish indeksi 103,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 1,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 73,8 %) tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish**  
(2021 yilning yanvar-iyun)


	<i>Mrd. so'm</i>	<i>2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
<b>Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi</b>	<b>3 495,5</b>	<b>114,7</b>
<b>Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>54,6</b>	<b>73,8</b>
<i>ulardan:</i>		
tog'–kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	54,6	73,8
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>3 233,5</b>	<b>114,7</b>
<i>undan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	503,4	109,4
ichimliklar ishlab chiqarish	7,0	116,4
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 098,1	110,9
kiyim ishlab chiqarish	202,8	129,2
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	1,0	103,1
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	21,3	180,6
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	11,5	100,3
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	3,3	207,0
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	38,6	103,5
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	106,6	126,7
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1,5	59,7

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda</i>
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	403,6	104,9
metallurgiya sanoati	67,3	91,7
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	20,9	128,7
elektr uskunalarini ishlab chiqarish	172,2	92,2
komp'yuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	146,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	63,3	105,7
Mebel' ishlab chiqarish	82,4	123,0
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	40,2	178,9
mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	37,4	157,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	350,9	0,0
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>165,3</b>	<b>146,3</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>42,1</b>	<b>103,9</b>

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonlari (92,5 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida sanoat korxonlari tomonidan 3 495,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 114,7 foizni tashkil etdi.


**Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi**  
(foiz hisobida)



**Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi**

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,7 foiz ulushini), Do'stlik (10,8 %) va G'allaorol (12,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti  
turlarini ishlab chiqarish**  
(yirik korxonalar bo'yicha)



	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021 yil yanvar-iyun</i>	<i>2020 yilning yanvar- iyuniga nisbatan foiz</i>
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	99 277,0	121,7
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	26 542,5	101,9
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	16 123,6	85,9
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	4 513,9	167,3
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	51,0	8,6
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	5 854,0	152,7
Paxta chigiti	t	40 991,7	88,6
Momiq	t	2 511,1	114,0
Tozalangan paxta yog'i	t	2 712,0	55,7
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	12 226,0	53,9
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	326,0	68,0
Tarkibida yog' yoki hayvon yoki o'simlik mumi bo'lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	94,0	47,2
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	32 582,2	97,2
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	20 070,0	108,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 590,0	170,4
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	22 046,6	154,4

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish natijasida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 38,1 foizga o'sgan va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 46,1 foizni tashkil etdi.

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2020 yil yanvar-iyun

2021 yil yanvar-iyun




■ Oziq-ovqat mahsulotlari

■ Nooziq-ovqat mahsulotlari


Shu bilan birga o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati viloyatning bir necha tumanlarida kuzatilmoqda. Xususan, G'allaorol (349,5 %) va Paxtakor (169,3 %), Forish (210,4 %) hamda Arnasoy (165,5 %) tumanlarida yuqori o'sish kuzatilgan.

2021 yilning 1 iyul holatiga hududlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (30,9 %), G'allaorol (15,6 %), Forish (8,2 %) va Paxtakor (8,1 %) tumanlari hisoblanadi.


**Hududlarning iste'mol tovarlaridagi ulushi**  
(foiz hisobida)



### 2021 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish




### 2021 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish




Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga oʻz taʼsirini koʻrsatdi.

Mazkur dastur doirasida 2021 yilning yanvar-iyun oylarida 1 173,1 mlrd. soʻmlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 21 007,2 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 706 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi.




### 2021 yil yanvar-iyun oylarida hududlar boʻyicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da






**2021 yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da**




**2021 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da**



Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Do'stlik (45,2 %), Arnasoy (51,5 %) va Paxtakor (67,4 %) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.

2021 yilning 1 iyul holatiga viloyatda 3273 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari bo'lib, ulardan 552 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari hisoblanadi.

**Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan  
kichik biznes korxonalari, birlikda**  
(2021 yilning 1 yanvar holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (144 ta) va Sharof Rashidov tumanida (86 ta) joylashgan.

Shuningdek, Zarbdor (32 ta), G'allaorol (76 ta), Zomin (37 ta), Do'stlik (32 ta), Forish (25 ta), Mirzacho'l (23 ta) Yangiobod (9 ta), Zafarobod (11 ta), Paxtakor (33 ta), Arnasoy (15 ta) hamda Baxmal (29 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.